

# **“TechnoWays” texnologik rivojlanish marafonini tashkil etish va g‘oliblarni aniqlash bo‘yicha nizom**

## **I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi oliy ta‘lim muassasalari talabalari, shuningdek, iqtidorli yoshlarni muhandislik sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ilmiy innovatsion hamda startap loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, eng sara loyihalarni aniqlash hamda rag‘batlantirish maqsadida tashkil etilayotgan “TechnoWays” texnologik rivojlanish marafoni (keyingi o‘rinlarda - Marafon)ni o‘tkazish, g‘oliblarini aniqlash va ularni taqdirlash tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Marafonda Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan oliy ta‘lim muassasalari talabalari va boshqa iqtidorli yoshlar, shuningdek, Toshkent shahri hamda viloyatlardan 3 nafardan jami 100 nafar iqtidorli yoshlar qamrab olinadi.

3. Marafonni tashkil etish va g‘oliblarni aniqlash Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi milliy ofisi, Yoshlar akademiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi oliy ta‘lim muassasalari (keyingi o‘rinlarda - Tashkilotchilar) bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

4. Marafon doirasida ishtirokchilarning muhandislik sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida seminar-treninglar, ishlab chiqarish korxonalariga texnoturlar, innovatsion loyihalar ko‘rgazmalari hamda turli tadbirlar tashkil etiladi.

## **II. Marafonda ishtirok etish talablari va shartlari**

5. Marafonda jami 100 nafar talabalar va iqtidorli yoshlar ishtirok etadi:

- Marafonning oliy ta‘lim muassasasi(11 ta) bosqichi g‘oliblari: 33 ;

Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi oliy ta‘lim muassasalarida tashkil etilgan marafonning oliy ta‘lim muassasasi bosqichida g‘olib deb topilgan 3 nafardan ishtirokchilarga yo‘llanma taqdim etiladi.

- Ro‘yxatdan o‘tish va saralash bosqichlaridan o‘tadiganlar: 28 nafar;

Tashkilotchilar Marafon boshlanishidan kamida bir hafta oldin Marafon shartlari, sanalari, joylari ko‘rsatilgan e‘lonni beradi va maxsus platforma orqali ishtirokchilarni ro‘yxatdan o‘tkazadi. Ro‘yxatdan o‘tish faqat Qoraqalpog‘iston Respublikasida istiqomat qiluvchi yoshlar uchun. Ro‘yxatdan o‘tgan ishtirokchilar orasidan ularning loyihalaridan holatidan kelib chiqqan holda 28 nafar ishtirokchi saralanadi;

- Toshkent shahri va viloyatlar jamoalari: 39 nafar;

Toshkent shahar va viloyatlar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar hududiy boshqarmalari tavsiyasiga asosan hududlarda ilm-fan va innovatsion faoliyatda tashabbuskor yoshlar jalb etiladi.

6. Marafon ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar:

- ishtirokchi 30 yoshdan oshmagan bo'lishi;

- marafonda qatnashish uchun ilmiy va innovatsion loyiha prototipi, mahsuloti, taqdimotiga ega bo'lishi;

- bitta ishtirokchi bitta loyiha bilan ishtirok etishi;

7. Marafon ishtirokchilarining loyihalari 2 xil kategoriyada bo'lishi lozim:

- Dasturiy ta'minot;

- Texnologik yechim;

8. Marafonda ishtirok etadigan loyihalar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- marafonda ishtirok etayotgan loyihaning ilmiy-innovatsion yangiligi;

- loyiha prototipining amaliyotga joriy etishga tayyorlik darajasi;

- loyihaning mavjud analoglardan farqi;

- loyihani joriy etishdan kutilayotgan natijaning muhimlik darajasi.

9. Marafon ishtirokchilarining ishlanmalarini baholash, natijalari bo'yicha g'olib va sovrindorlarni aniqlash Komissiya tomonidan loyihalar taqdimoti jarayonida amalga oshiriladi.

10. Marafon natijalari va g'oliblarini e'lon qilish hamda g'oliblarni taqdirlash Tashkilotchilar tomonidan Marafonning yopilish marosimida amalga oshiriladi.

11. Komissiyasi a'zolari, Tashkilotchi va homiylik qiluvchi tashkilotlarning xodimlari, yaqin qarindoshlari Marafonda ishtirok etish huquqiga ega emas.

### **III. Marafonni komissiyasi faoliyatini tashkil etish tartiblari**

12. Marafonda ishtirok etayotgan qatnashchilarning loyihalarini baholash, g'oliblarni aniqlash uchun har bir yo'nalish bo'yicha besh kishidan kam bo'lmagan tarkibda Marafon komissiyasi (keyingi o'rinlarda-Komissiya) tuziladi.

13. Komissiya a'zolari tarkibi Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi milliy ofisi, sanoat korxonlari xodimlari, shuningdek, muhandislik yo'nalishida faoliyat olib boruvchi mutaxassislardan shakllantiriladi.

14. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan Komissiya raisi saylanadi.

15. Komissiya a'zolari loyihalarni baholash jarayoni avvalida ishtirokchilarga baholash mezonlari, vaqt reglamentlari va g'oliblarni aniqlash tartibi to'g'risida tushuntirish beradi.

16. Marafonda ishtirok etayotgan loyihalar bo'yicha mas'ul komissiya ishiga zarur hollarda ko'rib chiqilayotgan ishlanmalar bo'yicha mutaxassislar maslahatchi sifatida jalb qilinishi mumkin.

17. Marafonda ishtirok etayotgan loyihalarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha tanlov g‘oliblari ro‘yxati va baholash jadvali ilova qilingan Komissiya bayoni yuritiladi hamda mazkur bayon Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

18. Natijalar Komissiya tomonidan bayon bilan tasdiqlanib, Tashkilotchining mas’ul vakiliga taqdim etilganidan so‘ng, yakuniy (hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib) hisoblanadi va komissiya qarori bo‘yicha faqatgina Komissiya a‘zolari javobgar hisoblanadi.

#### **IV. Loyihalarni baholash mezonlari**

19. Marafonda ishtirok etayotgan loyihalar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- Loyihaning ilmiy va innovatsion yangiligi – 10 ballgacha;
- Loyiha prototipining joriy etishga tayyorlik darajasi– 10 ballgacha;
- Mavjud analoglaridan afzalligi – 10 ballgacha;
- Loyihaning amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar – 10 ballgacha;
- Loyiha taqdimotini mukammalligi – 10 ballgacha.

20. Marafon ishtirokchilari Komissiya a‘zolariga loyihaning belgilangan mezonlar asosida tushuntirib bera olishi hamda undan foydalanish tartibini namoyish etishi lozim.

21. Loyihaning ilmiy yangiligini va zamonaviyligini ko‘rsatish maqsadida uning analoglari bilan solishtirish imkonini beruvchi aniq ma’lumotlarni taqdim etishi lozim.

22. Intellektual mulk obyekti sifatida muhofaza hujjatini (sanoat mulki obyektlariga patent) olgan loyihalar baholash jarayonida inobatga olinadi.

#### **V. Marafon g‘oliblarini aniqlash va ularni taqdirlash**

23. Tanlov Komissiyasi tomonidan baholash jarayonlari yakunlari bo‘yicha qo‘yilgan ballar umumlashtiriladi.

24. Marafonda quyidagi yo‘nalishlarda jami 12 nafar g‘oliblar aniqlanadi:

a) 1-yo‘nalish:

- “Dasturiy ta’minot” kategoriyasida 1-2-3-o‘rinlar;
- “Texnologik yechim” kategoriyasida 1-2-3-o‘rinlar;

b) 2-yo‘nalish:

- “Dasturiy ta’minot” kategoriyasida 1-2-3-o‘rinlar;
- “Texnologik yechim” kategoriyasida 1-2-3-o‘rinlar.

25. Marafonda g‘oliblari Komissiya bayoniga asosan tasdiqlanadi hamda hamda maxsus sertifikat, statuetka, 1-o‘rin g‘oliblari noutbuk, 2-o‘rin g‘oliblari 3D printer, 3-o‘rin g‘oliblari Smart TV taqdirlanadi.

26. Homiyalar taqdim etgan esdalik sovg‘alar Tashkilotchi yoki homiyalar bilan kelishilgan tartibda g‘oliblarga va imkoni bo‘lgan holatlarda esa yuqori

ko'rsatkichlarga ega, faol ishtirokchilarga ham (rag'batlantiruvchi sovg'a sifatida) topshiriladi.

27. Ushbu Nizom, Marafon to'g'risidagi ma'lumotlar va uning natijalari Tashkilotchi va uning tizimidagi tashkilotlar rasmiy veb-sayti va boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

## **VI. YAKUNIY QOIDALAR**

28. Marafonda ishtirok etish ishtirokchilarning ushbu Nizomda belgilangan qoidalar va talablarga to'liq roziligini anglatadi. Ishtirokchi ushbu Nizomda belgilangan qoidalar yoki talablarni buzishi yoki ularni to'g'ri bajarishdan bosh tortishi ishtirokchi Marafonda qatnashishdan bosh tortishini anglatadi.

29. Ishtirok etish qoidalarini yoki ushbu Nizom bilan tartibga solinmagan masalalarni noaniq talqin qilishga imkon beradigan vaziyatlar yuzaga kelganda, bunday sharhlash va/yoki tushuntirish bo'yicha yakuniy qaror to'g'ridan-to'g'ri va faqat tanlov tashkilotchilari tomonidan qabul qilinadi.

30. "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq mazkur nizom qoidalarida huquqiy bo'shliqlar va ziddiyatlar yuzaga kelganda O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq ish yuritiladi.

31. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tanlov ishtirokchilari qonunchilik hujjatlari buzilishi yuzasidan yuqori turuvchi tashkilotlarga murojaat qilishi mumkin.

32. Mazkur nizom talablari buzilishida aybdor shaxslar qonunchilikka muvofiq belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.